

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



TARIXIY GEOGRAFIYA
FANIDAN O'QUV DASTURI

(Kunduzgi ta'lim 1-kurs talabalari uchun)

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Termiz– 2024

Fan/modul kodi TG1105	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarixiy geografiya	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda tarixiy geografiya fanining shakllanishi va taraqqiyoti, uning tarixiy fanlarni o'rganishdagi o'rnini, mintaqamizning boy tarixiy geografiyasiga haqida tarixiy-geografik bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda fanning nazariy va amaliy masalalari hamda O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi va kartografiyasini o'rgatish orqali bilim hamda ko'nikmani shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Tarixiy geografiya fanining maqsad va vazifalari. Asosiy bo'limlari</p> <p>Kirish. Tarixiy geografiya fanining maqsad va vazifalari. Tarixiy geografiya fani haqidagi ilmiy qarashlar. Tarixiy geografiyaning fan sifatida shakllanishi. Tarixiy geografik manbalar va fanga doir adabiyotlar tarixshunosligi.</p> <p>Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari: tabiiy tarixiy geografiya; aholi tarixiy geografiyasi; xo'jalik (iqtisodiy) tarixiy geografiyasi; siyosiy tarixiy geografiya (shaharlar va o'lkalar joylashishi, tarixiy voqealar geografiyasi, harbiy harakatlar yo'nalishlari, janglarning karta-sxemalari, xalq qo'zg'olonlari geografiyasi).</p> <p>2-mavzu. Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlar. O'rta Osiyo olimlarining tarixiy-geografik merosi</p> <p>Tarixiy geografiyani o'rganishda yordamchi fanlarning o'rnini. O'rta Osiyo olimlari asarlarining tarixiy geografiya uchun ahamiyati (Al-Xorazmiy, Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Xondamir, Bobur va boshqalar).</p> <p>3-mavzu. Tarixiy kartografiyaning asosiy yo'nalishlari, shakllanishi va taraqqiyoti</p> <p>Karta va kartografiya. Kartalarning mazmuniga ko'ra bo'linishi. Tarixiy kartografiya ilmiy fan sifatida. Tarixiy kartalarning turlari (tarixiy-siyosiy, tarixiy-iqtisodiy, tarixiy-harbiy, madaniy-tarixiy va hokazo). Tarixiy kartografiyaning paydo bo'lish bosqichi va taraqqiyoti. Tarixiy kartografiyaning fan sifatida mazmuni va tarixiy-kartografik usullarning tarix fanida qo'llanilishi. Ўзбекистонда картография фани тарихи.</p> <p>4-mavzu. O'rta Osiyo olimlarining kartografik tadqiqotlari. O'rta Osiyo hududi aks etgan xaritalar</p> <p>O'rta osiyolik olimlarning kartografik tadqiqotlari. Antik davr mualliflarining O'rta Osiyoga doir kartografik tadqiqotlari. G'arbiy yevropaliklar tuzgan kartalarda O'rta Osiyo hududlarining aks etirilishi va ularning xususiyatlari. O'zbekiston hududi Rossiya imperiyasi va sobiq SSSR tarixiy kartalarida. Mustaqil O'zbekistonda kartografiya fanining taraqqiyoti.</p> <p>5-mavzu. O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davri tarixiy geografiyasi</p>			

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tarixiy geografiyasining asosiy jihatlari va xususiyatlari. Temir asri (paleolit, mezolit, neolit) manzilgohlari tarixiy geografiyasi. Arxeologik obyektlar tarixiy geografiyasi. Joytun, Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod va boshqa madaniyatlar. Encolit va bronza (o'troq dehqonchilik manzilgohlari, ko'chmanchi qabilalar qo'rg'onlari, mozor-qo'rg'onlar va hokazo) davridagi manzilgohlar va aholining tarqalishi.

6-mavzu. Antik davr O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi

Qadimgi Xorazm, So'g'd va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi (mil. avv. VI-IV asrlar). Asosiy tarixiy viloyatlar, aholi joylashuvi. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining xususiyatli jihatlari; shaharlar, davlat birlashmalarining shakllanishi. Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari va yunon-makedon istilolari davri tarixiy geografiyasi. Spitamen qo'zg'oloni tarixiy geografiyasiga tavsif. Salavkiylar davlati hukmronligi davrida So'g'd (So'g'diyona) va Baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Ma'muriy-hududiy bo'linish, shaharlar va asosiy mintaqalar. Yunon-Baqtriya podsholigi tarixiy geografiyasi. Buyuk Ipak yo'liga tarixiy-geografik tavsif. Asosiy yo'nalish va tarmoqlari. Kushon podsholigi tarixiy geografiyasi.

7-mavzu. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar va arab xalifaligi bosqaruvi davri tarixiy geografiyasi

O'rta Osiyo hududida ilk feodal davlatlarning tashkil topishi. Eftaliylar davlati tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo Turk hoqonligi tarkibida (VI-VII asrlarga tarixiy geografik tavsif). Arab xalifaligining O'rta Osiyoni istilo qilish tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyo Arab xalifaligi tarkibida. Tarixiy-siyosiy geografiya. O'rta Osiyoda xalifalik hokimiyatiga qarshi xalq harakatlari geografiyasi (Muqanna va hokazo).

8-mavzu. IX–XIV asr o'rtalarida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi

IX asrda O'rta Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlatining tarixiy geografiyasi. Somoniylar davlatining tarixiy geografiyasiga tavsif (chegaralari, iqtisodiy aloqalari, shaharlar). Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va tarixiy geografiyasiga tavsif. Xorazmning Ma'mun, G'aznaviy va Saljuqiylar davlatlari davridagi tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiy tili o'zbek xalqining shakllanishi va uning asosiy davrlari. Xorazmshohlar (anushteginlar) davlati va uning tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyoga mo'g'ullar bosqini. O'rta Osiyo xalqlarining bosqinchilarga qarshi harakatlari tarixiy geografiyasi. O'rta Osiyoning mo'g'ul uluslari (Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda) tarkibidagi tarixiy geografiyasi: Kebeixon islohotlari va Movarounnahning ma'muriy-hududiy bo'linishi. Chig'atoy ulusining qulashi. Movarounnahning XIV asming 50–60-yillaridagi va mo'g'ul xonlarining yurishlariga qarshi kurashlari tarixiy geografiyasi.

9-mavzu. Amir Temur va temuriylar davri tarixiy geografiyasi

Amir Temur davlatining shakllanishi va taraqqiyoti (ma'muriy-siyosiy chegaralar, harbiy yurishlar va hokazo). Temuriylar davlatining tarixiy geografiyasi (XV asr). Ulug'bekning Movarounnahrdagi davlati. XV asr oxirida O'rta Osiyoning tarixiy geografiyasi.

10-mavzu. XVI–XVIII asr birinchi yarmida O'rta Osiyodagi tarixiy geografik jarayonlar

Ko'chmanchi o'zbeklarning Dashti Qipchoqdagi davlati (Abulxayrxon davlati) va uning Shayboniixon tomonidan tiklanishi (tarixiy-geografik tavsifi). Temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi kurashlar tarixiy geografiyasi. Shayboniylar davlati tarixiy geografiyasi. Etnik jarayonlar. Ashtarxoniyalar va Xorazm davlatining tarixiy geografiyasi.

Шайбонийлар, аштархонийлар давлатлари ва Хоразмнинг сиёсий ва иқтисодий географияси (XVI-XVIII асрнинг биринчи ярми).

11-mavzu. O'rtasiyoning xonliklari tarixiy geografiyasi (XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asr birinchi yarmi)

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining siyosiy tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linishi. Xo'jalik, xalqlar, savdo aloqalari va tarixiy demografiyasiga tavsif. O'rtasiyoning geografik va kartografik jihatdan o'rganilishi.

12-mavzu. O'rtasiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi

Rossiya imperiyasining istilo geografiyasi. Asosiy istehkomlar, harbiy yurishlar tarixiy geografiyasi. 1865–1867 yillarda Turkiston. 1867 yilda general-gubernatorlikning tashkil topishi, chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi. Rossiya–Buxoro (1868 y) va Rossiya–Xiva (1873 y) urushlari; chegaralarning o'zgarishi. XIX asr 80–90-yillari va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixiy geografiyasi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Xo'jalik tarixiy geografiyasidagi o'zgarishlar.

13-mavzu. 1917-1924 yillarda Turkiston o'lkasi tarixiy geografiyasi

1917-yil fevralidan so'ng Turkiston o'lkasi. 1917–1920-yillardagi keskin harbiy-siyosiy kurashlar davrining tarixiy geografiyasiga tavsif. Turkiston muxtoriyati. Turkiston ASSR va uning tarixiy geografiyasi. 1917–1920 yillarda Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi. BXSР va XXSRning tashkil topishi.

14-mavzu. O'zbekistonning tarixiy geografiyasi (1924-1991-yillar)

O'zbekistonning 1924–1938-yillardagi chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi. O'zbekistonning XX asr 40–80-yillardagi ma'muriy-hududiy bo'linish tizimi. Hududiy bo'linishdan so'ng O'rtasiyoning chegaralari 1936 yilda Qoraqalpog'istonning avtonom respublika sifatida O'zbekiston tarkibiga kirishi. Sovet davrida O'zbekistonning xo'jaligi, aholi va tabiiy geografiyasi.

15-mavzu. O'zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi

O'zbekiston Respublikasining tabiiy-geografik tavsifi va ma'muriy-hududiy tuzilishi. Respublikaning aholi geografiyasi. Sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi. Transport va aloqa yo'llari. Tarixiy geografiya va kartografiya fani taraqqiyoti va tadqiqotlar tahlili.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Tarixiy geografiya" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Tarixiy geografiya" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tarixiy geografiyaning metodi, predmeti va vazifalari.
2. Tarixiy geografiyaning vazifalari. Tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari.
3. Tarixiy geografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
4. Tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari.
5. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
6. O'rtasiyoning ibtidoiy jamoa va antik davrdagi tarixiy geografiyasi.
7. O'rtasiyoning o'rtasiy asrlardagi tarixiy geografiyasi.

8. O'rtasiyoning davlatlarining XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi.
9. O'rtasiyoning chor Rossiyasi boshqaruvi davridagi tarixiy geografiyasi.
10. 1917–1924-yillarda Turkiston. O'zbekistonning 1924–1938-yillardagi chegaralari va ma'muriy-hududiy bo'linishi.
11. O'zbekistonning XX asr 40–80-yillaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish tizimi.
12. O'zbekiston poytaxtlari.
13. Sovet davrida O'zbekiston, Qozog'iston va Tojikiston chegarasining o'zgarishlari.
14. O'zbekistonning xo'jaligi, aholi va tabiiy geografiyasi.
15. O'zbekiston Respublikasining tarixiy geografiyasi (1991–2017-yillar).
16. O'zbekistonda tarixiy geografiya fani taraqqiyoti vazifalari.

Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o'quv rejada mazkur mashg'ulot turiga ajratilgan soat hajmiga mos ishlar tanlab bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tarixiy geografiyaning metodi, predmeti va vazifalari.
2. Uning fan sifatidagi o'rni va taraqqiyoti.
3. Tarixiy kartografiya va uning xususiyatlari.
4. Tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti.
5. Qadimgi davr O'rtasiy tarixiy geografiyasi.
6. O'rtasiyodagi tarixiy hududlar va qadimgi xalqlarning joylashuvi.
7. Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida O'rtasiy.
8. O'rtasiyoning Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari daridagi tarixiy geografiyasi.
9. Qang', Dovon, Kushon davlatlari tarixiy geografiyasi.
10. Buyuk Ipak Yo'li geografiyasi.
11. O'rtasiyoning ilk o'rtasiy asrlardagi tarixiy geografiyasi.
12. Eftallar davlati va Turk xoqonligining iqtisodiy va demografik geografiyasi.
13. Arablarning O'rtasiy istilo qilishi.
14. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxitoylar davri tarixiy geografiyasi.
15. Xorazmshohlar davri tarixiy geografiyasi.
16. Mo'g'ullarning O'rtasiy istilo qilishi. Mo'g'ul uluslari davrida O'rtasiy. Amir Temur va temuriylar davri tarixi geografiyasi.
17. O'rtasiyoning Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Xiva xonligi (XVI–XVIII asrlar) davridagi tarixiy geografiyasi.
18. XVIII asrning ikkinchi yarmi–XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari tarixiy geografiyasi.
19. O'rtasiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi. O'rtasiy ma'muriy-hududiy chegarasining o'zgarishi.
20. Mustamlaka davridagi O'rtasiy tarixiy geografiyasi.
21. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-hududiy bo'linishi.
22. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida milliy-ozodlik harakati geografiyasi.
23. 1917–1924-yillar O'rtasiyoning tarixiy geografiyasi.
24. Turkistondagi milliy-hududiy chegaralanish. Sovetlar davrida O'zbekistonning tarixiy geografiyasi.
25. O'zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi.

	<i>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mustaqil ish tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i>
3.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tarixiy geografiya va kartografiyaning vazifalari, tarixiy geografiyaning asosiy bo'limlari, tarixiy geografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti, tarixiy kartografiya va uning asosiy yo'nalishlari, tarixiy kartografiyaning shakllanishi va taraqqiyotini bilishi kerak; • talaba O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa va antik davrdagi tarixiy geografiyasi, O'rta Osiyoning o'rta asrlar va XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasi, mintaqaning Rossiya imperiyasi boshqaruvi davridagi hamda Turkistonning 1917–1924-yillarda tarixiy geografiyasi va ushbu davrlarga oid kartografik tadqiqotlar haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak; • talaba O'zbekistonning 1924–1991-yillardagi tarixiy geografiyasi, mustaqil O'zbekistonda tarixiy kartografiya va geografiyaning muammolari va taraqqiyot vazifalari, hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasining xususiyatli jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. Darslik. – T.: Noshir, 2010. 2. Tarixiy geografiya va kartografiya. O'quv qo'llanma. –T.: Shafat Nur Fayz, 2020. 3. Saidboboyev Z. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар (XVI–XIX асрлар). – Т.: “Фан”, 2008. 4. Ҳасанов Ҳ. Сайёх олимлар. – Т.: “Ўзбекистон”, 1981. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. 2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент: “Ёшлар нашриёт уйи”. 2019. 3. Абулғоziхон. Шажараи турк. – Т., 1992. 4. Аминов О. XVI–XX асрларда Ўрта Осиёнинг Россия билан тарихий ва иқтисодий алоқалари. – Т., 1958. 5. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т., 1996. 6. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. т. 1. – М., 1963.

	<ol style="list-style-type: none"> 7. Голубцов И. А. Вопросы исторической географий, архивоведения, археологии и источниковедения. – М., 1963. 8. Гумилёв Л. Н. Древние тюрки. – М., 1967. 9. Дьяконов Н. М. Древняя Бактрия. – М., 1954. 10. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Т., 1992. 11. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Т., 1993. 12. Караваев З. Ф. Некоторые вопросы создания исторических карт. – М., 1956. 13. Лунин Б.В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т., 1965. 14. Мирзалиев Т. Картография. – Т., 1982. 15. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. – Т., 1999. 16. Пидаев Ш. Сирли кушонлар давлати. – Т., 1990. 17. Преображенский А.И. и др. Составление и редактирование специальных карт. – М., 1961. 18. Сағдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т., 1996. 19. Тарихий манбашунослик муаммолари / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2008, 2013, 2018. 20. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-3 жилд. – Т.: Шарк, 2000. 21. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. – Т.: Шарк, 2001. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.ziyo.net 2. http://www.maphistory.info/ 3. http://www.history.ru 4. http://academic.emporia.edu/aberjame/map/h_map/h_map.htm 5. https://www.geography.wisc.edu/histcart/
7.	O'quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashning 2024-yil 30 - avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul (lar):</p> <p>A.Sattarov - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlari” kafedrası dotsenti, g.f.n.</p> <p>A.Abduraxmanov–Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Tarix fanlari” kafedrası o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Xoliyorov T.Ch. – Termiz muhandislik-agrotexnologiyalar universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD).</p> <p>Yangiboyeva D. – TerDU “O'zbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD).</p>